


ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2020-yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2800,3 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ga ko‘paydi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2020-yil yanvar-iyun

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jami hajmga nisbatan %da</i>
Jami	2800,3	101,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar	350,2	53,4	12,5
Davlat byudjeti mablag'ları	146,1	38,5	5,2
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	24,2	71,2	0,9
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Hukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari	179,9	3,7 m.	6,4
Markazlashmagan investitsiyalar	2450,1	116,8	87,5
Korxona o'z mablag'ları	794,7	2,3 m.	28,4
Aholi mablag'ları	528,7	83,1	18,9
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlari	453,4	74,1	16,2
Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'ları	673,3	132,2	24,0

Markazlashgan investitsiyalar hisobidan 2020 yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 53,4% yoki 350,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi.



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar 2450,1 mlrd. so‘m yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 116,8 % ni tashkil qildi.


Korxona mablag'lari-794,7 mlrd.so‘m

Aholi mablag'lari-528,7 mlrd. so‘m

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-453,4 mlrd. so‘m


Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari-673,3 mlrd. so‘m

Hududlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar



2020 yilning yanvar–iyun oylarida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar jamiga nisbatan, Urganch shahri 26,9 % va Xonqa tumani 11,8 %ni tashkil qiladi.


Hududlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari Xonqa tumani 151,6 % va Gurlan tumani 134,6 % o'sish kuzatildi.

Shuningdek ayrim hududlarda o'tgan yilga nisbatan kamayish kuzatildi, jumladan Xiva tumani 60,2 %, Bog'ot tumani 71,4 %, Qo'shko'pir tumani 69,9 % va Yangiariq tumani 72,0 %.


Hududlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2020-yil yanvar-iyunda 1496,3 ming so'm yoki 100,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib 5229,5 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,9 % ni tashkil etdi, Yangibozor tumanida 2071,6 ming so'm (yoki 118,4 %) va Xiva shahrida 2056,0 ming so'm (yoki 119,3 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o’zlashtirilgan investitsiyalar



Asosiy kapitalga o’zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2020-yilning yanvar-iyun oylarida 633,3 mlrd. so‘m o’zlashtirilib (dollar ekvivalentida 64,7 mln. AQSH doll.), o’tgan yilning mos davriga nisbatan 95,8 % tashkil qildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 39,8 % ni ta’minladi, Xiva shahri (11,4 %), Gurlan tumani 7,9 % kuzatildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar


	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd. so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan % da.</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
Xorazm viloyati	633,3	395,0	100	22,6

shahar va tumanlar:


Urganch sh.	251,9	204,9	39,8	33,4
Xiva sh.	71,9	20,8	11,4	37,9
Bog'ot	29,8	27,9	4,7	13,7
Gurlan	49,9	42,7	7,9	26,6
Qo'shko'pir	20,2	8,6	3,2	16,5
Urganch	56,3	34,6	8,9	24,0
Hazorasp	31,0	10,5	4,9	27,8
Tuproqqa'l'a	10,9	-	1,7	18,1
Xonqa	49,0	13,1	7,7	14,8
Xiva	16,3	16,2	2,6	15,5
Shovot	27,6	4,6	4,4	19,9
Yangiariq	9,7	9,7	1,5	5,8
Yangibozor	8,8	1,5	1,4	4,9

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 22,6 % ni tashkil qilib, 39,8 % bilan Urganch shahri yetakchilik qilmoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalarga nisbatan ulushi %da



Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (*mlrd. so'm*)



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiylajmaga nisbatan 28,4 %, yoki 179,9 mlrd. so'm O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy

kreditlar, 71,6 % yoki 453,4 mlrd. so‘m xorijiy investitsiya va kreditlar, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya 164,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



**Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi
Nashr uchun mas’ul: Sh.Babajanov
Telefon: (0362) 224-65-22.**